



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

2022- YILDA O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASIDA TURIZM
VA DAM OLISH RIVOJLANISHING
ASOSIY KO'RSATKICHLARI




O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan.


Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ'ib etishda ham samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko'p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo'lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo'nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi rolga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda ularning barchasi turizmning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda.

2022- yilda kiruvchi, chiquvchi va ichki turizmning asosiy ko'rsatkichlari




O'zbekiston bo'ylab sayohatlar soni, ming birl.





2022- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


Turistik firma va tashkilotlarining hududlar bo'yicha soni, birl.



2022- yilda qabul qilinganlar soni, ming kishi




2022- yilda jo'natilganlar soni, ming kishi




2022- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari, ming birlik



Viloyatlar bo'yicha sotilgan sayyohlik yo'llanmalari, ming birlik



Turistik firma va tashkilotlar xodimlari, kishi



2022- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joy obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yil davomida O'zbekiston hududida **1167** ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan **93,2 %** i mehmonxonalar, **1,3 %** motellar va **5,5 %** boshqalarga to'g'ri keladi.

Mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar, birlik





Yulduzlar toifasi bo'yicha mehmonxonalar, birlik toifaga ega bo'lmaganlar



Xonalar 29,2 ming nomerlar
59,3 ming o'rinlar

Tunab qolishlar soni 4348,9 ming birlik


Hududlar bo'yicha mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar soni, birlik



2022- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish muassasalarda shaxslarni joylashtirish

2022- yil davomida mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish muassasalarga 2250,3 ming kishi joylashtirildi, ulardan 53,4 % i O'zbekiston fuqarolari, 30,4 % MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari va 16,2 % i xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.


Joylashtirilgan shaxslar soni



- O'zbekiston fuqarolari **1201,5** ming kishi
- MDH ga a'zo mamlakatlar fuqarolari **684,8** ming kishi
- xorijiy davlatlar fuqarolari **364,0** ming kishi

2022- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan 929,9 ming kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadida, 834,6 ming kishi ta'vil, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, 78,6 ming nafari do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, 42,8 nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, 58,2 ming nafari davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, 58,9 ming nafari ziyoratgohlarga tashrif maqsadlarida kelgan.

Sayohat maqsadi kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi



ta'vil, bo'sh vaqt va dam olish

do'stlar va qarindoshlardan xabar olish

ziyosatgohlarga tashriflar

davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar

ta'lim va kasbiy tayyorgarlik

do'konlarga tashriflar

tranzit

boshqa shaxsiy maqsadlar


ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar




2022- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari soni **405** tani tashkil etib, shundan **27,7 %** i Toshkent viloyatida, **8,4 %** Farg'ona va **10,1 %** Toshkent shahrida faoliyat yuritmoqda. Ixtisoslashtirilgan muassasalar turlari bo'yicha sanatoriya - profilaktoriya **72** ta, katta yoshlilar uchun sanatoriya **75** ta, dam olish uylari va bazalari **67** ta, bolalar uchun sanatoriyalar **26** ta va **33** ta boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalaridan tashkil topgan.


Hududlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari soni, birlik



Turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari binolari, birlik




Xonalar, ming birlik



2022- yilda shaxslarni ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


2022- yil davomida 651,1 ming kishi ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirildi, ulardan 96,1 % i O'zbekiston fuqarolari, 3,5 % MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari va 0,4 % i xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.

Joylashtirilgan shaxslar soni



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirilgan shaxslardan **440,8** ming kishi davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, **143,1** ming kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **7,6** ming kishi ish va kasbga oid maqsadlar yuzasidan, **23,2** ming kishi ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, **19,0** ming kishi ziyoratgohlarga tashrif maqsadida, **0,6** ming kishi do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida va 16,6 ming kishi boshqa shaxsiy maqsadlarda kelgan.

Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi



2022- yilda individual joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yil davomida O'zbekiston hududida **207** ta individual joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan **84,5 %** i mehmon uylari, **9,2 %** i dala hovli, **2,4 %** o'tov lagerlari va **3,9 %** boshqa turar joylar ulushiga to'g'ri keldi.

Individual joylashtirish muassasalari, birlik

175
mehmon uyi

19*
dala hovli

5
o'tov
lageri

8
boshqa


Xonalar

1,2 ming xonalar
3,3 ming joylar

Tunab qolishlar **153,2** ming birl.

*yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dala hovlilar

Hududlar bo'yicha individual joylashtirish muassasalari soni, birlik



2021- y.


2022- y.

O'zbekiston hududlarida 2022- yilda eng ko'p individual turar joylar Xorazm (**49** ta), Samarqand (**29** ta) va Toshkent (**32** ta) viloyatlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

2022- yilda shaxslarni individual turar joylarga joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


2022- yil davomida individual turar joylarga 58,5 ming kishi joylashtirildi, ulardan 63,9 % i O'zbekiston fuqarolari, 18,6 % xorijiy davlatlar fuqarolari va 17,5 % MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari bo'ldi.

Joylashtirilgan shaxslar soni



Individual turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan 35,5 ming kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, 1,0 nafari do'stlari va qarindoshlarini ziyorat qilish, 8,9 nafari ish va kasbiy maqsadlarda, 3,0 nafari davolanish va sog'lomlashtirish muolajalari maqsadida, 0,4 nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida kelganlar.


Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi



2022- yilda boshqa joylashtirish muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yilda boshqa joylashtirish obyektlari soni 98 tani tashkil etdi, shundan 31,9 % i Toshkent shahrida, 19,8 % Buxoro va 13,2 % Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatmoqda. 2022- yilda 673,8 ming nafar ziyoratchiga xizmat ko'rsatilib, 82,9 % qabul qilindi, 14,0 ming nafar fuqaro xorijiy davlatlar va O'zbekiston bo'ylab sayohatga jo'natildi.

Hududlar bo'yicha boshqa joylashtirish vositalari soni, birl.



Boshqa joylashtirish vositalari, birl.



2022- yilda boshqa turar joylarga shaxslarni joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


2022- yil davomida 85,8 ming kishi boshqa turar joylarga joylashtirildi, ulardan 83,0 % i O'zbekiston fuqarolari, 10,9 % MDHga a'zo davlatlar fuqarolari va 6,1 % xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.

Joylashtirilgan shaxslar soni



Boshqa turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan 8,6 ming kishi ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, 13,5 nafari ish yuzasidan va kasbga oid maqsadida, 21,7 nafari ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, 4,5 nafari do'stlar va qarindoshlarini ziyorat qilish, 0,8 nafari tranzit maqsadida, 3,1 nafari davolanish va sog'lomlashtirish maqsadida, 0,8 ming kishi diniy joylar va ziyoratgohlarga tashrif maqsadida va 32,6 ming kishi boshqa shaxsiy maqsadlarda kelgan.

Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi



Statistikaga oid eslatmalar

Turizm – jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan, vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan chiqib ketishi (sayohat qilishi).

Turist – vaqtinchalik yashash uchun biron bir mamlakatga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan o‘n ikki oygacha bo‘lgan muddatda vaqtinchalik yashash uchun, daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan, yoki kamida ma‘lum bir muddatga vaqtincha yashash uchun borgan jismoniy shaxs.

Kirish turizmi kiruvchi sayyohlik safari davomida ushbu mamlakatdagi norezident mehmonning faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Chiqish turizmi ko‘rilayotgan mamlakatdan tashqarida doimiy yashovchi mehmonning chiqish yoki ichki turistik sayohati doirasidagi faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Mehmon (ziyoratchi) – boshqa davlatga o‘z kasbiy faoliyatidan daromad olishdan boshqa maqsadni ko‘zlab kelgan shaxs.

Do‘stlar va qarindoshlarni ziyorat qilish – ushbu turkumga qarindoshlar yoki do‘stlarni ziyorat qilish kabi faoliyatlar kiradi; to‘ylarda, dafn marosimlarida yoki boshqa oilaviy tadbirlarda qatnashish; kasal yoki qariyalarga qisqa muddatli g‘amxo‘rlik va boshqalar.

Ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik – ushbu toifaga ish beruvchilar yoki boshqa tashkilotlar/shaxslar tomonidan to‘lanadigan qisqa muddatli kurslarda qatnashish, maxsus o‘quv dasturlarini tamomlash yoki kurslarda ma‘lum ko‘nikmalarga ega bo‘lish, jumladan, pullik o‘qish, til o‘rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ta‘tillar va hokazolar kiradi.

Davolanish va sog‘lomlashtirish muolajalari – Ushbu toifaga shifoxonalardan, poliklinikalardan, sanatoriyalardan va tibbiy-ijtimoiy muassasalardan keyingi tibbiy yordam ko‘rsatish xizmatlarini olish, dengizga va boshqa kurortlarga tashrif buyurish, shuningdek, tibbiy maslahat asosida tibbiy yordam olish uchun boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar kiradi. Tibbiy asbob-uskunalar va xizmatlardan foydalangan holda kosmetik jarrohlik.

Ishga doir va kasbiy maqsadlar – ushbu toifaga yakka tartibdagi tadbirkorlar va xodimlarning faoliyati, agar ularda mamlakatda yoki tashrif buyurilgan joyda rezident ishlab chiqaruvchi bilan aniq yoki nazarda tutilgan mehnat munosabatlari belgilari bo‘lmasa, shuningdek investorlar, tadbirkorlar va boshqalar faoliyati kiradi.

**Press-relizlarni tayyorlash uchun mas'ul :
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi**



O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
statistika agentligi



Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi,
63
Tel: +99871 202-80-70



e-mail:sdg@stat.uz



www.stat.uz



facebook.com/uzstataxborot

